
O‘zbek xalq kuylari


O‘zbek xalq kuylari xalq og‘zaki musiqasi, ular asosida yuzaga kelgan maqom cholg‘u va ashula yo‘llari, kuylari hamda muallifi noma’lum bir qator dilbar musiqa asarlaridir. O‘zbek xalq musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va tutgan o‘rnining xilma-xilligi ham ana shu bilan bog‘liq.

Xalq kuylari o‘zining jozibadorligi, mazmuni jihatidan oddiy insonlar hayotiga aloqadorligi, turli kechinma, his-tuyg‘ularni ifodalay olishi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, xalq kuy-qo‘shiqlarini o‘rganish musiqiy merosimizni o‘zlashtirish, bu boradagi bilimlarni mustahkamlashda ijobiy natijalar beradi. Shu sabab bo‘lajak musiqachi-sozandalar milliy musiqa merosini o‘rganib, kelajakdagi faoliyatiga ijodiy zamin yaratadilar.

Lazgi




Yallama yorim



Tanovar

O‘rtacha

O‘zbek xalq kuyi



40 “Lazgi”.

41 “Tanovar”.

42 “Yallama yorim”.

1. Har bir kuyning kayfiyatini aniqlang.
2. Sizningcha, musiqa cholg‘usi o‘z ovozi bilan bu kayfiyatni yaratishga yordam beradimi?

43

Shermat Yormatov (1939 – 2021)



Shermat Yormatov – O‘zbekiston xalq artisti, xor dirijori, murabbiy va bastakor. Uning mehnat faoliyati ko‘p ovozli bolalar xor ijrochiligini rivojlantirishda alohida o‘rin egallaydi. Sh. Yormatov O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi huzurida “Bulbulcha” bolalar jamoasini tashkil qildi. Ijodkor o‘z mehnat faoliyati davomida xor repertuarini boyitish maqsadida kompozitor va shoirlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi.

Shermat Yormatov 1939-yil 17-oktabrda Farg‘ona viloyatida tavallud topdi. U umumta’lim maktabida a’lo baholarga o‘qish bilan bir qatorda havaskorlar to‘garagiga qatnashdi, ko‘plab tanlov va festivallarda ham g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Maktab yillari ajoyib taassurotlarga boy o‘tgan yosh Shermat Yormatovning orzulari Toshkent madaniyat texnikumiga yetakladi.

U 1961-yili Toshkent shahridagi 99-sonli maktab qoshida respublikada ilk bor o‘zbek bolalar xor jamoasiga asos soldi. Bu xor jamoasi keyinchalik “Boychechak” xor studiyasiga aylandi. Vaqt o‘tib, O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshida tashkil etilgan namunali bolalar xor jamoasiga Shermat Yormatov badiiy rahbar bo‘ldi va bosh dirijorlik qildi.
Bu xor jamoasi “Bulbulcha” ashula va raqs ansambliga aylantirildi. Shu zaylda bu ansamblning shuhrati butun olamga yoyildi.

Sh. Yormatovning ijodi bevosita qo‘shiq janri bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan: “G‘ildiragim”, “Islom bobo”, “Oymomajon rom bo‘ldi”, “Bu go‘zal o‘lka”, “Dadamlarga o‘xshasam”, “Qor”, “Sumalak”, “Oy Vatanim”, “Maysa”, “Boychechak”, “Qari chumchuq chaqimchi”, “Yalpiz”, “Dorboz”, “Keldi Navro‘z”. O‘smirlar uchun “Assalom, hayot” nomli besh qismli kantata, bolalar xalq termalari asosida vokal-xoreografik syuitasini yaratdi.

Shermat Yormatov “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

“Bulbulcha” bolalar xor va raqs ansambli ijrosida qo‘shiqlardan parcha tinglang.

44 “Chittigul”.

45 “Bog‘imda gullar chaman”.

46 “Malika poshsho”.


1. Siz tinglagan qo‘shiqlarning kuylari qanday xarakterga ega?
2. Ushbu qo‘shiqlarda nima haqida kuylanganini tasavvur qiling va ularni tavsiflang.
3. Qo‘shiqqa qanday cholg‘ular jo‘r bo‘lgan?
4. Qanday cholg‘ularning ovozi yorqinroq eshitilgan?

1. Guruhlarga bo‘lining va tinglangan qo‘shiqlardan birini tanlang. Bu qo‘shiqqa mos yengil raqs harakatlarini o‘ylab toping.
2. Tanlangan qo‘shiqlarni ijro etishga tayyorlaning. Ijro etishda shovqinli-zarbli musiqa cholg‘ularidan foydalaning.



Bolaparvar diyor

Sh. Yormatov musiqasi
N. Narzullayev she'ri



47



Bu qaysi cholg‘uning ovozi?

48 49

50 51



1. O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrosidagi musiqalardan namunalar tinglang.
2. Rasmlardan ijro etilgan har bir musiqa cholg‘usini toping.
3. Tinglangan musiqa sizga yoqdimi?
4. Musiqiy namunalardan qaysilari sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

Tinglangan kuylarda nechta va qanday cholg‘ular ishtirok etganini toping.

52 53 54



Musiqiy shakl



Rasmlarda nimalarni ko‘rayotganingizni ayting. Sizningcha, bu rasmlarda qanday umumiylik bor?



Ushbu predmetlarning barchasi muayyan shaklga ega bo‘lgani kabi, musiqiy asarlarda ham shakllar mavjud.

Musiqiy shakl – bu musiqa asarining tuzilishi. Shakl har bir asarning mazmuni bilan belgilanadi va barcha tovush elementlarining bir vaqt ichida umumiy harakati bilan tavsiflanadi. Shakl barcha san’at turlari uchun umumiy bo‘lsa-da, biz uni turlicha idrok etamiz. Grafika, rasm, haykaltaroshlik, arxitektura ko‘zlar yordamida idrok etiladi, buning natijasida ularning shakli ham bir butun, ham alohida qismlar shaklida olinishi mumkin. Musiqa ham so‘z san’ati (she’riyat, nasr) kabi zamonga qarab asta-sekin ochiladi. Shuning uchun musiqa asarlari butun ongimizda darhol namoyon bo‘lmaydi. Musiqiy shakl eshitish davomida bosqichma-bosqich ochiladi, shundan keyingina xotiramizda bir butunga birlashadi.

55

G‘. Qodirovning “Maktabjon-oftobjon” vokal-simfonik kantatasi.

4 guruhga bo‘lining. Asarni 4 qismga o‘zaro taqsimlang va quyidagi savollar bo‘yicha ma’ruza tayyorlang:

1. Tinglagan musiqangizning xarakterini aniqlang.
2. Bu musiqada qanday cholg‘ular eng yaqqol jaranglaydi?
3. Kompozitor tanlagan cholg‘ular tembrlari musiqa xarakterini yetkazishga qanday yordam beradi?
4. Siz tinglagan musiqada qanday ovozlar yangraydi?
5. Asarning she’riy matnida qanday mavzular yoritilgan?
6. Qanday musiqiy ifoda vositalari kompozitorga asarning har bir qismidagi tantanavorlik, bayramonalik, raqsga tushish yoki o‘ziga xos hissiylikni, ayniqsa, yorqin ifodalashga yordam beradi?



Sahnaviy musiqa janrlari



Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatri



Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali teatri

Teatr – bu adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, xoreografiya, vokal va shu kabilarni o‘z ichiga olgan san’at turi. Teatr namoyishlari (spektakllar)da ko‘pincha real hayotda sodir bo‘layotgan voqealar aks ettiriladi.

Aktyor, raqqosa yoki qo‘shiqchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar teatrda ifoda etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Raqqosa raqsga tushadi, xonanda qo‘shiq kuylaydi, aktyor so‘zlaydi va harakat qiladi. Qo‘g‘irchoq teatrida esa aktyorlar qo‘l va oyoqlari yordamida qo‘g‘irchoqlarni sahnada “jonlantiradilar”.

















Opera – bu eng murakkab teatr janrlaridan biri. Opera spektakllarida musiqa, aktyorlik harakati, dekoratsiya va liboslar hamda dirijor rahbarligidagi orkestr ijrosi birgalikda namoyon bo‘ladi. Opera qo‘shiqchisi o‘z qahramonining obrazi va xarakterini qo‘shiq orqali ifodalaydi. Vokal san’atkorga o‘z harakatlarini to‘liq ifodalashga va asardagi boshqa qahramonlar bilan muloqot qilishga yordam beradi. Operadagi dirijor orkestrga rahbarlik qiladi va xonandalarning o‘z vaqtida sahnaga chiqishiga, bir xil temp va dinamikani saqlab turishiga yordam beradi.

Balet – teatr san’atining yana bir janri bo‘lib, unda asardagi qahramonlarning harakati va xarakteri raqs orqali ifodalanadi. Balet spektaklida aktyorlik mahorati, sahna ko‘rinishi va liboslardan foydalaniladi. Spektaklning musiqiy bezagi dirijor rahbarligidagi orkestr tomonidan amalga oshiriladi.

Operetta – bu musiqa, qo‘shiq, sahna harakati va raqsni o‘zida birlashtirgan musiqali teatr janri. Uning operadan farqi shundaki, bunday spektakllar vaqt jihatidan qisqaroq bo‘lib, quvnoq va komediya xarakteriga ega bo‘ladi.

Myuzikl – qo‘shiq kuylash, raqsga tushish, so‘zlash va turli shou ko‘rinishlari (tomoshalar)ni o‘z ichiga olgan janr. Uning opera, balet va operettadan farqi shundaki, unda harakatlar ham kuylash, ham raqsga tushish orqali ifoda etiladi.



1. Ushbu janrlarning qaysi biri uchun musiqa yaratishni xohlaysiz? Buning uchun zarur bo‘ladigan ifoda vositalarini sanab o‘ting.
2. Opera va balet bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Myuzikl boshqa sahna janrlaridan qanday farqlanadi?



“Teatrda musiqa” mavzusida krossvord tuzing. Musiqaga oid o‘zingiz bilgan barcha so‘zlardan foydalaning. Boshqa guruh a’zolariga krossvordingizni yechishni taklif qiling.



Darslikdagi rasmlardan foydalanib, diagrammalarni gullar shaklida chizing. O‘rtasida teatr turini, gulbarglarida esa ushbu teatrda ishlatiladigan ifoda vositalarini tasvirlang.



Berilgan asarlardan parchalar tomosha qiling.

56 A. Mansurov, “Hayvonlar sultoni” operasi.

57 U. Musayev, “To‘maris” baleti.

58 M. Bafoyev, “Yoriltosh” operasi.

59 A. Mansurov, “Alovuddinning sehrli chirog‘i” operasi.

Musiqada qish

Rassomlar, shoirlar, musiqachilar ijodida tabiat mavzusi alohida o‘rin tutadi. Biz doimo atrofimizdagi dunyoning go‘zalligini ko‘rishni va his qilishni xohlaymiz. Musiqa insonga bu go‘zallikni yanada estetik darajada idrok etishga yordam beradi.

Bilamizki, ko‘plab rassomlar, shoirlar va bastakorlar qishning sehrli go‘zalligini hayratlanarli “ranglar” bilan ta’riflaydilar.

Rassom tomoshabinga doimiy ravishda qishki manzaralarni o‘ylashda paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularga qaytish imkoniyatini bersa, shoir yorqin qiyos va epitetlardan dadil foydalanadi.

Tinglovchiga musiqa tili bilan gapirganda, bastakor ayozli havoning musaffoligini, uxlayotgan qishki o‘rmonni, oyoq ostidagi qorning g‘ijirlashini his eta oladi...



1. Sizningcha, qish faslining eng jozibali jihati nimada?
2. Qish fasli bilan bog‘liq bo‘lgan qanday musiqa asarlari nomini ayta olasiz?
3. Qish mavzusiga bag‘ishlangan qanday she’rlar, hikoyalar, ertaklar va filmlarni bilasiz?
4. Qish mavzusiga oid eng sevimli badiiy asaringiz qaysi?

Gans Kristian Andersen – daniyalik mashhur yozuvchi, “Bolalarga aytilgan ertaklar” to‘plamining muallifi. U uch mingdan ortiq hikoya va ertaklar yozgan, ularning aksariyati dunyoning 125 tiliga tarjima qilingan.

Andersenning “Qor malikasi” ertagi taniqli daniyalik yozuvchining eng mashhur asarlaridan biriga aylandi. Uning asosiy mavzusi – yaxshilik va yomonlik, yoz va qish o‘rtasidagi ziddiyat. Salbiy qahramon Qor malikasi, mehribon qiz Gerda bilan qarama-qarshi qo‘yilgan. Bolalar bu ertakdan sadoqat, do‘stlik va fidoyilikni o‘rganadilar.





Gerda – Kayning do‘sti, tutingan ukasini qidirishga ketgan qo‘rqmas qiz. Uning yo‘li uzoq, qiyinchiliklar va xavf-xatarlarga to‘la, ammo uning qalbida mehr yashaydi va u qizga hamroh bo‘ladi. Ukasini topishda Gerdaga odamlar ham, hayvonlar ham yordam beradi.



Qor malikasi – dunyo bo‘ylab sayohat qiladi va uni qor bilan to‘ldiradi. Qor malikasining saroyi Laplandiyada, abadiy muzlik mamlakatida joylashgan. Malika go‘zal, lekin uning nigohi juda sovuq, u bir qarashda derazalarga naqsh sola oladi.



Kay – kichkina bola, qo‘shni qiz Gerdaning samimiy do‘sti. U mehribon va hamdard, Gerdaga mehr bilan bog‘langan, buvisini hurmat qiladi. Kunlardan bir kuni oyna parchasi avval Kayning ko‘ziga, so‘ng yuragiga tegadi va u muzlab qoladi. U hamma narsani buzib ko‘rishni, Gerda va buvisining ustidan kulishni, barcha odamlarni masxara qilishni boshlaydi.

“Qor malikasi” ertagi uchun bir nechta musiqiy misollar tinglang.

60 A. Morsin, “Qor valsi”.

61 A. Shershnyov, “Uy mavzusi”.

62 A. Shershnyov, “Bahor mavzusi”.

63 A. Shershnyov, “Ertakchining qo‘shig‘i”.


1. Siz tinglagan kuylarda kompozitorlar qanday musiqa cholg‘ularidan foydalanganlar?
2. Qanday ifoda vositalari kompozitorlarga ajoyib muhit yaratishga yordam bergan?
3. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, tinglangan musiqa sizda qanday taassurot qoldirganini ayting.



O‘zbek ofitserlari

D. Omonullayeva musiqasi
Salim Ashur she’ri

Marsh tempida



64

Diyorimning qalqoni,
Ozodlikning posboni.
Bobomeros ori bor,
Har so‘zin zalvari bor.

Naqarot:

Vatanga fido joni,
Asrar O‘zbekistonni.
O‘zbek ofitserlari,
Millatning mard erlari!

Yurt bayrog‘i – nomusi,
Qasamyodi – qomusi.
Quyosh bilan yelkadosh,
Bardoshidan sinar tosh.

Naqarot:

Osmonda ham, yerda ham,
Chegarada, qirda ham,
Sobitdir qasamida,
O‘t chaqnar qadamida.



O‘zbek xalq raqslari

Bugun biz O‘zbekistonning turli xalq raqslari bilan tanishamiz. O‘zbek xalq raqslari o‘zbek xalqi go‘zalligining timsoli bo‘lib, boshqa sharqona raqslardan ijro paytida qo‘l harakatlari va yuz ifodalariga alohida e’tibor berish bilan ajralib turadi. Raqslarning beshta asosiy – Farg‘ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro, Qoraqalpoq va Surxondaryo raqs maktablari mavjud.

Farg‘ona-Toshkent raqs maktabi – hozirgi Farg‘ona vodiysi hududida shakllangan. Farg‘ona raqsi erkin pozitsiyaga, yengil va ifodali yurishlarga, qo‘llar va barmoqlarning serqirra, puxta va ifodali harakatlariga, nigohlar, xo‘rsinishlar, bosh irg‘ashlarga asoslangan. Erkaklar raqslarida dadil harakatlar ustunlik qilsa, ayollar raqslarida nafislik va yorqinlik ajralib turadi.

65



1. Raqs va liboslarda qanday xususiyatlar mujassamlashgan?
2. Siz tomosha qilayotgan raqslar sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otdi?

Xorazm raqs maktabi – Xorazm vohasida qadimgi davrlarda shakllangan va asrlar davomida rivojlangan. Ushbu yo‘nalish qo‘llar va oyoqlarning yorqin harakatlari, barmoqlarni chertish kabi chiroyli pozitsiyalarga boy bo‘lib, u qo‘llarni silkitish, tizzalarga sakrash bilan ajralib turadi. Uning yana bir xarakterli jihati shundaki, unda qayroq va kastanetlardan foydalaniladi.

66



1. Xorazm raqs maktabi raqslarining eng diqqatga sazovor jihati qanday?
2. Bu raqsda qaysi raqs harakatlari ko‘p takrorlangan?

Buxoro raqs maktabi – hozirgi Buxoro viloyati hududida shakllangan. Harakatlarning erkaklarga xosligi va tezkorligi, aylanishlar, burilishlar, qarsaklar, pozitsiyalar – uning xarakterli jihatidir. Buxoro maktabining raqqosalari ko‘pincha tizzalari bilan o‘tirib, egilib, yelkalarini muloyimlik bilan silkitib, barmoqlarini yerga tekkizadilar. Raqqosalarning qo‘llarida qayroq bo‘ladi, oyoqlari esa zanglar – qo‘ng‘iroqchalar bilan bezatiladi.

67



1. Buxoro raqs maktabi raqslarining qanday jihatlari sizni o‘ziga jalb qildi?
2. Sizningcha, raqqosalarni nima ilhomlantiradi?

Qoraqalpoq raqs maktabi – 1956 – 1959-yillarda shakllangan. Qoraqalpoqlar yarim ko‘chmanchi turmush tarzi tufayli xalq o‘yinlarini vujudga keltirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Ammo bu xalqda tana harakatlari orqali turli kayfiyat va his-tuyg‘ularni plastik ifodalash ishtiyoqi juda rivojlangan edi. 1944 – 1945-yillarda atoqli o‘zbek xoreografi Ali Ardobus Ibrohimov bir qancha qoraqalpoq raqslarini yaratdi. 1956 – 1959-yillarda esa, mashhur o‘zbek xoreografi Yelizaveta Petrosova Qoraqalpog‘iston aholisining keng qatlamlari tomonidan iliq qabul qilingan raqslarni yaratdi.

Qoraqalpoq raqsi – bu butun tana raqsi bo‘lib, u qo‘llarning jiloli harakatlarini, tananing virtuoz harakatlarini, yelka va boshning noodatiy hamda g‘ayrioddiy harakatlarini tashkil etadi.

68



Rasmlarni ko‘rib chiqing va liboslar, musiqa cholg‘ulari hamda raqqosalar harakatlarini taqqoslang.

Surxondaryo raqs maktabi – vohaning azalgi nomoddiy madaniy merosi xalqaro miqyosda ko‘p yillardan buyon o‘tkazib kelinayotgan – “Boysun bahori” beb nomlanadigan ochiq folklor festivali orqali butun dunyo xalqlarida tarannum etiladi.

Surxondaryo raqs maktabining asosiy yo‘nalishi qo‘l, oyoq, tana harakatlarining ma’no-mazmuni tabiat o‘zgarishlari, shu hududning iqlimi, yil fasllarining o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda aholisining turmush tarzini, sharoitlari-yu mehnatini aks ettirishdan iboratdir.

69



1. Surxondaryo raqs maktabi raqslarining qanday jihatlari sizni o‘ziga tortdi?
2. Ushbu raqs maktabi boshqa raqs maktablaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Raqqosalarning liboslari, ritmi, harakatlari, ularga jo‘r bo‘ladigan cholg‘ular va ijrochilarning tarkibiga ko‘ra siz tomosha qilgan raqslar qaysi maktabga tegishli ekanini aniqlang.

Taassurotlaringiz bilan o‘rtoqlashing. Ayting-chi, qaysi xalq raqs maktablarining raqslari sizga yoqdi va nima uchun?

Berilgan kuylarni tinglab, bu kuylar aynan qaysi xalqqa tegishli ekanini toping.

70 71 72

Raqqosalarning liboslarini ko‘rib chiqing va ular raqs maktablaridan qaysi biriga tegishli ekanini aniqlang.



Siz videoni tomosha qilgan holda bolajonlar tomonidan bajarilayotgan harakatlar qaysi raqs maktabiga tegishli ekanini toping.

73 74 75

76


Muxtor Ashrafiy (1912 – 1975)




Muxtor Ashrafiy Buxoroda mashhur musiqachi oilasida tug‘ilgan. U 12 yoshida mahalliy Sharq musiqa maktabiga o‘qishga kirgan va Samarqand, Toshkent, Moskva hamda Leningradda tahsil olgan. Muxtor Ashrafiy o‘zbek xalq qo‘shiqlarini to‘plash va yozib olish bilan bir qatorda, musiqa teatrining dirijori va badiiy rahbari, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri direktori (1943 – 1947), Samarqand opera va balet teatri direktori va badiiy rahbari (1964 – 1966), Toshkent davlat konservatoriyasi rektori (1971 – 1975) bo‘lib faoliyat yuritgan.

Uning ijodiy faoliyati deyarli barcha musiqa janrlari – operalar, baletlar, simfonik va damli cholg‘ular orkestri hamda kinofilmlar uchun musiqa kabilarni qamrab oladi.

Muxtor Ashrafiy O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. Yurtimizning bilim yurti, maktablar, ko‘chalariga Muxtor Ashrafiy nomi berilgan.








1. Bu asarlar qaysi musiqiy janrga tegishli ekanini aniqlang.
2. “So‘zsiz qo‘shiq”da qaysi orkestr ijrosini eshitdingiz?
3. “Kashmirda” asarini qanday vokal ovoz ijro etgan: erkak, ayol yoki bola?
4. Yakkaxonning qo‘shig‘iga qanday turdagi orkestr jo‘r bo‘ladi?

Bayram

S. Muzafarova musiqasi
I. Jiyanov she’ri

O‘rtacha





79

Quvonchli kundir bugun,
Hamma narsa biz uchun.
Orzu to‘la ko‘nglimizga
Baxt so‘rab uchqun.

Ravondir yo‘llarimiz,
Osmondek dillarimiz.
Yayrab yurakdan
Qo‘shiq aytamiz.


Bolalar xalq qo‘shiqlari


Bolalar xalq qo‘shiqlari janri – bolalar musiqiy ijodiyoti va tarbiyasining eng qadimgi turlaridan biridir.

Xalq amaliy san’atining bu turida 2 ta yo‘nalish mavjud: bolalarga aytiladigan qo‘shiqlar va bolalar tomonidan aytiladigan qo‘shiqlar. Qoida tariqasida, bolalar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar tabiatan o‘ynoqi, sho‘x bo‘ladi.

Bolalar xalq qo‘shiqlarining shakl va janrlari soni xilma-xildir. Bolalar xalq qo‘shiqlarining janrlari: o‘yinbop qo‘shiqlar, kundalik qo‘shiqlar, mavsumiy qo‘shiqlar, mehnatga, fasllarga, tabiatga, hayvonlarga bag‘ishlangan qo‘shiqlardan iborat.

Tabiiyki, bu qo‘shiqlarning ayrim janrlarini yaratishda kattalarning ma’lum darajada ishtiroki bor. Biroq bu qo‘shiqlar bevosita bolalar tomonidan ijro etiladi. Hozirda “Alla”, “Arg‘amchi”, “Bahor keldi”, “Boychechak”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Chittigul”, “Chuchvara qaynaydi”, “Kim oladi-ya, shuginani-ya?”, “Bo‘yi-bo‘yi” va boshqalar avloddan avlodga bolalar tomonidan kuylanib o‘tib kelyapti.







82 “Ramazon”.



83 “Laylak keldi”.




1. 4 guruhga bo‘lining va tavsiya etilgan qo‘shiqlardan birini tanlang.
2. Qo‘shiqni tinglang va uning tavsifini aniqlang.
3. Tinglangan qo‘shiq uchun oson raqs harakatlarini o‘ylab toping va ularni guruhda o‘rgating.
4. Qo‘shiq matniga asoslanib, o‘z raqsingizni yarating. Raqsingizni qo‘shiq jo‘rligida sinfdoshlaringizga namoyish eting.

Barkamol avlod

I. Yuldosheva musiqasi
I. Mirzo she’ri

Sho‘x, quvnoq



84

Boshimizda oftob bor,
Qo‘limizda kitob bor.
O‘rganamiz, o‘samiz,
Intilganga tole yor.

Naqadar tiniq osmon,
Bizniki barcha imkon.
Biznikidir kelajak,
Yurakda O‘zbekiston.

Naqarot:

Qanday go‘zal bu hayot,
Ko‘ngillar shod, yurt obod.
Orzularga bo‘l qanot,
Barkamol avlod.

To‘lib oqsin daryolar,
Tinmasin sho‘x navolar.
Ko‘rib jamolimizni,
Qoyil qolsin dunyolar.

Dilni dilga bog‘laymiz,
Yurt qadrini saqlaymiz.
Bobomizning ishonchin,
Biz, albatta, oqlaymiz.

Naqarot:

Qanday go‘zal bu hayot,
Ko‘ngillar shod, yurt obod.
Orzularga bo‘l qanot,
Barkamol avlod.

Shashmaqom. Musiqiy meros

Shashmaqom – Markaziy Osiyo mumtoz musiqasining asosiy janrlaridan biri bo‘lib, u O‘zbekiston va Tojikiston madaniyatida namoyon bo‘ladi. Bu nafis kuy va yuqori professional vokal san’ati.

O‘rta Osiyoda maqom san’ati tarixi eramizning XI–XII asrlaridan, ya’ni 12 maqomdan iborat sikl to‘liq shakllangan davrlardan boshlanadi. Bu janrning rivojlanishiga olimlar, musiqachilar va faylasuflar Al-Farobiy, Ibn Sino, Ali Changiy, Barbad, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab olimlar hissa qo‘shganlar. Bizda uchta maqom maktabi mavjud – Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent. Dastlab, XVI asrda Buxoro maktabi vujudga keldi, birozdan keyin Xivada Xorazm maktabi, so‘ngra Farg‘ona-Toshkent maktabi paydo bo‘ldi. XIX asrda maqom uchun nota yozuvi “tanbur notasi” ixtiro qilindi.

85

1959-yilda Yunus Rajabiy “Maqomchilar” maqom ansamblini tashkil etdi va unga o‘zi rahbarlik qildi. Akademik Vohid Zohidov Rajabiyning ijod yo‘li haqida gapirar ekan: “U asrlar davomida go‘zal ohanglarning chang bilan qoplangan “unutish pardasini” yirtib, ularni sayqalladi, bu bebaho marvaridlarni avlodlar mulkiga aylantirdi”, deb ta’kidlaydi. Hozir maqomchilar ansambli Yunus Rajabiy nomi bilan ataladi. Bu musiqa jamoasi 60 yildan ortiq vaqt davomida davlat tadbirlari va bayramlarida faol ishtirok etib, xalqimizga milliy musiqa merosimizni taqdim etib kelmoqda.





Toshkent shahridagi Yunus Rajabiy uy-muzeyi



Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti



“Maqom” so‘zi arab tilidan tarjima qilinganda “o‘rin”, “to‘xtash”, “daraja” kabi ma’nolarni anglatadi. Maqom ijro etuvchi sozandalar uchun esa bu “nota”, “motiv”, “kuy” kabi ma’nolarni anglatadi.

Shashmaqom 6 ta maqomdan iborat bo‘lib, ular “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” deb nomlanadi. Har bir maqom cholg‘u va vokal qismlardan iborat. Maqomlarni to‘liq yoki alohida qismlarga bo‘lib ijro etish mumkin.

1. “Maqom” so‘zi nimani anglatadi?
2. Shashmaqom nechta maqomdan iborat?
3. Shashmaqomning barcha qismlari nomini to‘g‘ri ketma-ketlikda ayting.

Maqomlardan musiqiy namunalar tinglang. Siz tinglayotgan kuyda eshitilayotgan musiqa cholg‘ularini tavsiflang, taassurotlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

86 Buzruk

87 Dugoh

88 Rost

89 Segoh

90 Navo

91 Iroq

92

Turg‘un Alimatov (1922 – 2008)



Turg‘un Alimatov Toshkent viloyatining Keles qishlog‘ida tug‘ilgan. U 13 yoshidan Toshkent pedagogika instituti qoshidagi musiqa to‘garagida tahsil olgan. Turg‘un Alimatov Yosh tomoshabinlar teatrida, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida va uzoq yillar davomida O‘zbekiston radiosi xalq cholg‘u asboblari orkestrida sozanda bo‘lib ishlagan. 1970-yildan Turg‘un Alimatov maqomchilar ansamblida ishlay boshlagan va ko‘p yillar davomida “Shashmaqom” namunalarini yozib olishda fidokorona ishtirok etgan.

Turg‘un Alimatov O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 25 yil dars berib, u dutor, tanbur va sato chalishning mohir ustasi sifatida o‘nlab iste’dodli shogirdlar tayyorlagan. Turg‘un Alimatov o‘zbek musiqa san’atini asrash, rivojlantirish va ommalashtirishda ko‘rsatgan fidokorona xizmatlari uchun oliy davlat mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Turg‘un Alimatov ijrosidagi kuylarni tinglang va savollarga javob bering.

93 “Tanovar” – tanbur ijrosida.

1. Tinglagan musiqangiz sizga yoqdimi?
2. Sizningcha, bu musiqa qanday yangraydi, quvnoqmi yoki sokinmi?

94 “Chorgoh” – tanbur ijrosida.

1. Tinglangan kuyning kayfiyatini tavsiflab bering.
2. Ayting-chi, bu kuyni ansambl bo‘lib ijro etish mumkinmi? Javobingizni izohlang.

95 “Nasri segoh” – sato ijrosida.

1. Bu kuyda qanday kayfiyatni his qildingiz?
2. Ovozi sato cholg‘usiga yaqin bo‘lgan yana qanday musiqa cholg‘usini bilasiz?

96 “Navo” – sato ijrosida.

1. Tinglagan musiqangiz tabiati haqida nima deya olasiz?
2. Bunday musiqa ostida qanday she’rlarni o‘qishni tanlagan bo‘lar edingiz?

97 “Dutor navosi” – dutor ijrosida.

1. Dutorda ijro etilgan kuy sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Tinglagan musiqangizda ijro etilgan musiqa cholg‘ularining tovushini solishtiring.

98 “Qo‘qoncha” – dutor ijrosida.

1. Ayting-chi, tinglagan kuyingizning ritmini raqsga mos deya olasizmi?
2. Sizningcha, yilning qaysi fasli siz tinglagan kuylarga mos keladi?



O‘zbekiston akademik xonandalari

Opera musiqa janri XVII asrda Italiyada paydo bo‘lgan va XIX asrda butun Yevropaga keng tarqalgan.

Opera – musiqa, qo‘shiq, dramaturgiya, raqs (balet), tasviriy san’at (sahnaviy manzaralar va liboslar)ni bir sahnada birlashtirgan janr. Opera ijrochilari olti turdagi ovozdan biriga ega bo‘lgan erkak va ayol qo‘shiqchilardir.



Tenor, bariton, bas – erkak opera ijrochilarining ovozlari.

Soprano, messo-soprano, kontralto – ayol opera ijrochilarining ovozlari.

Bugun biz O‘zbekiston opera san’atining yorqin namoyandalari bilan tanishamiz.

Avaz Rajabov (1956)

99



O‘zbekiston xalq artisti Avaz Rajabov bariton ovozli yorqin opera ijrochilaridan biri. Xonanda 1956-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1976-yilda Samarqand san’at bilim yurtida tahsil olgan. 1981-yilda esa Toshkent teatr va rassomlik institutini tamomlab, shu yili Samarqand opera va balet teatrining yakkaxon xonandasi bo‘lib ishlay boshlaydi. 1994-yildan buyon Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatrida faoliyat yuritib kelmoqda.

Avaz Rajabov boy tembrli va keng diapazonli bariton ovozga ega. Bu unga turli opera janrlarida vokal partiyalarni ijro etish imkonini beradi. Xonanda AQSH, Turkiya, Rossiya, Armaniston va Qozog‘istonda o‘tkazilgan xalqaro tanlovlarda Gran-pri va boshqa mukofotlar sovrindori bo‘lgan.

Uning repertuaridan J. Verdining “Traviata”, “Aida”, “Bal-maskarad”, J. Bizening “Karmen”, “Marvarid izlovchilar”, P. Chaykovskiyning “Toppon xonim”, “Yevgeniy Onegin”, “Lolanta” kabi operalaridagi yetakchi partiyalar joy olgan.

Avaz Rajabov ijrosidagi vokal asarlaridan namunalar tinglang.

100 S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan Hoji Darg‘a ariyasi.

101 E. Vohidov she’ri J. Nazarov musiqasi, “Yana qaytdi bulbullar”.

1. Tinglangan musiqa sizga yoqdimi?
2. Erkak opera ijrochilari ovozlari nomlarini eslang.
3. A. Rajabov ovoziga tavsif bering.

102

Halima Nosirova (1913 – 2003)



Halima Nosirova – opera xonandasi (soprano), o‘qituvchi, O‘zbekiston xalq artisti Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. U oilada to‘qqizinchi farzand bo‘lgan. 1924 – 1927-yillarda Boku teatr texnikumida tahsil olgan va shu yillari Hamza nomidagi teatr (hozirgi O‘zbek Milliy drama teatri)da drama aktrisasi sifatida o‘z ijodiy faoliyatini boshlagan. 1934-yildan 1937-yilgacha Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi O‘zbek opera studiyasida tahsil olgan. 1930-yildan 1985-yilgacha A. Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatrida ishlagan va 1939-yildan boshlab, u yerda yetakchi yakkaxon xonanda bo‘lgan. “Layli va Majnun” operasidagi Layli, T. Sodiqov va R. Glierlarning “Gulsara” operasidagi Gulsara, S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidagi Maysara, J. Bizening “Karmen” operasidagi Karmen kabi partiyalar haqli ravishda Halima Nosirova ijrosidagi eng yaxshi partiyalar hisoblanadi.

O‘zbek milliy opera san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Halima Nosirova O‘zbekiston xalq artisti unvoni, “Do‘stlik” va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.

Halima Nosirova ijrosidagi musiqiy namunalarni tinglang.

103 “Chaman ichra” o‘zbek xalq qo‘shig‘i.

104 S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan Maysara ariyasi.

1. Tinglangan musiqa sizga yoqdimi?
2. Ayol opera ijrochilari ovozlarining nomlarini eslang.
3. H. Nosirovaning ovozi sizni nimasi bilan o‘ziga jalb qiladi?

Ismoil Jalilov (1948)

105



O‘zbekiston xalq artisti, Italiya Kankordi-Roma musiqa akademiyasining faxriy professori va O‘zbekiston davlat konservatoriyasining faxriy professori Ismoil Jalilov 1948-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U 16 yoshida italyan opera qo‘shiqchisi Mario Lanzanining filmdagi ijrosini ko‘radi va aynan shu ondan boshlab unda musiqaga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi. Yoshligida u “Yalla” guruhining qo‘shiqchisi bo‘lgan.

I. Jalilov 1976-yilda Moskva konservatoriyasining vokal bo‘limiga o‘qishga qabul qilinadi. 1979–1981-yillarda Moskva Davlat Akademik Katta teatrida qo‘shiq kuylay boshlaydi. 1981-yildan u Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatri yakkaxon ijrochisi, 1998-yildan O‘zbekiston Milliy simfonik orkestrida badiiy rahbar lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Yetakchi dramatik tenor Ismoil Jalilov ko‘plab tanlov va festivallar laureati hamda ko‘plab mukofotlar sovrindori bo‘lgan. U dunyoning ko‘plab davlatlarida O‘zbekiston opera maktabini sharaf bilan namoyon etgan.

Ismoil Jalilov repertuaridan P. Chaykovskiyning “Toppon xonim”, J. Verdining “Rigoletto”, “Otello”, “Traviata”, J. Bizening “Karmen”, S. Yudakovning “Maysaraning ishi”, S. Jalilning “Zebunniso” kabi operalaridagi yetakchi partiyalar joy olgan.

Ismoil Jalilov ijrosidagi musiqiy namunalarni tinglang.

106 E.di Kapua musiqasi J. Kapurro she’ri, “O sole mio”.

107 R. Glier va T. Sodiqov “Layli va Majnun” operasidan Qays ariyasi.

1. Tinglangan musiqa sizga yoqdimi?
2. A. Rajabov va I. Jalilov ovozlarini solishtiring.
3. Sizga kimning ovozi ko‘proq yoqdi va nima uchun?

108

Jenisbek Piyazov (1988)



O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, Boshqirdiston hamda Tatariston respublikasi xalq artisti Jenisbek Piyazov 1988-yilda Nukus shahrida ijodkor oilasida tug‘ilgan. Musiqa sulolasiga J. Piyazovning bobosi, taniqli dramatik aktyor, Qoraqalpog‘iston xalq artisti Zeynel Piyazov asos solgan. Piyazovlar oilasining barcha a’zolari xalq cholg‘ularidan g‘ijjak va do‘mbira cholg‘ularida ijro eta olishgan.

J. Piyazov 2007-yilda Nukus madaniyat va san’at kollejini tamomlab, shu yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga “Akademik vokal” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. 2009-yilda u Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatrida vokalist sifatida o‘z faoliyatini boshladi.

Nufuzli xalqaro tanlovlar g‘olibi, noyob bas tembri sohibi Jenisbek Piyazov ko‘plab mashhur operalarda bosh rollarni ijro etdi. Uning ovozi dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi opera ixlosmandlari qalbidan joy oldi. 2019-yilda u jahonga mashhur Milan teatri “La Skala” sahnasida qo‘shiq kuylagan birinchi o‘zbekistonlik bo‘ldi.



“La Scala” Milan teatri, Italiya



“La Scala” Milan teatr zali

Bugungi kunda Jenisbek Piyazov xalqaro opera sahnasida O‘zbekistonning “tashrif qog‘ozi” hisoblanadi.

109 “Bo‘zatov” qoraqalpoq xalq qo‘shig‘i.

110 S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan Hoji Darg‘a ariyasi.

1. Tinglangan musiqalar sizga yoqdimi?
2. Erkak va ayol opera ijrochilari ovozlarining qanday nomlanishini eslang.
3. Jenisbek Piyazovning ovozi qanday ovozga mos keladi? Uning ovozini tavsiflang.

Musiqada bahor

Bahorda tabiat qishki uyqudan uyg‘onadi. Bu nafaqat daraxtlarning uyg‘onish vaqti, balki yangilanish va ilhom vaqti hamdir. Ushbu yuksalish to‘lqinida bahorning nafisligi, sofligi va yorqinligini madh etuvchi rasmlar, kuy va qo‘shiqlar, shuningdek, bahor haqida chiroyli so‘zlar o‘z-o‘zidan tug‘iladi.

Har 21-mart – bahorgi tengkunlikda yurtimizda sevimli bayram “Navro‘z” nishonlanadi. Aynan shu kuni yangi astronomik yil boshlanadi. Ming yillar oldin paydo bo‘lgan Navro‘z bugungi kunda nafaqat davlat bayrami, balki asosiy milliy an’analardan biridir. Bayram kunlarida odamlar bir-birlariga mehr ko‘rsatib, o‘zaro xafagarchiliklarni unutadilar, mehmonga boradilar, mehmon kutadilar va Navro‘z timsoli bo‘lmish sumalak bilan mehmon qilib, sovg‘alar ulashadilar.

111

M. Mirzayev musiqasi, “Bahor valsi”. “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari davlat kamer orkestri.



“Bog‘ aro bahor”, Rustam Xudayberganov



1. Nima deb o‘ylaysiz, nega bastakorlar, musiqachilar va rassomlar o‘z asarlarida ko‘pincha tabiat tasvirlariga murojaat qiladilar?
2. Nima uchun muallif bu asariga “Bahor valsi” deb nom bergan?
3. Tinglangan kuy sizga qanday kayfiyat bag‘ishladi?
4. Rassom Rustam Xudayberganovning “Bog‘ aro bahor” asarini tomosha qilib, ushbu asar bilan M. Mirzayevning “Bahor valsi” kuyi orasida qanday umumiylik borligini ayting.
5. “Bahor valsi” musiqiy asarini va “Bog‘ aro bahor” tasviriy san’at asarini qanday so‘zlar bilan tavsiflash mumkin? Hissiy lug‘atdan foydalaning.



Sumalak

X. Hasanova musiqasi
A. Obidjon she'ri

O'rtacha

Chi-roy ber-di ko'k-lam - ga Nav - ro'z. Gul-lar soch-di o-lam -
ga Nav-ro'z. Dil - dan to-shib sho-don o - hang - lar,
Ay-lan-di zo'r bay-ram - ga Nav - ro'z. Qu-yosh - li kun, oy-din ke -
ko-na bun-day bay-
cha - lar, Gul-sho-xi - da bul-bul kuy cha - lar. O'z-be-
ram - ni,

1.

2.

Or-zu qil-gan ne-cha-ne - cha - lar.

Naqarot:

Ming-lab, ming-lab, ming-lab
o' - g'il - qiz, Bo'l - sin, bo'l-sin biz - ga - jo'r. Nav-ro'z bay-ra-mi-da
ham - ma - miz Su-ma-lak su-ma-lak Su-ma-lak-xo'r.



112

Doshqozonda qaynaydi jo‘shib,
Sumalak ham aytmoqda qo‘shiq.
Sumalakdan yalar bolalar,
Momolarning mehrini qo‘shib.

Quyoshli kun, oydin kechalar,
Gul shoxida bulbul kuy chalar.
O‘zbekona bunday bayramni
Orzu qilgan necha-nechalar.

Naqarot:

Minglab, minglab, minglab o‘g‘il-qiz,
Bo‘lsin, bo‘lsin bizga jo‘r.
Navro‘z bayramida hammamiz
Sumalak, sumalak, sumalakxo‘r.



113

Sulaymon Yudakov (1916 – 1990)



Sulaymon Yudakov o‘zbek va tojik milliy san’atida yangi janrlar asoschilaridan biri. U ota-onasidan erta ajralgan va 12 yoshidan Qo‘qon bolalar uyida tarbiyalangan.

Bolalar uyida S. Yudakovning musiqaga qiziqishi uyg‘ongan va u yerda musiqiy notalarni o‘qish, ko‘plab musiqa cholg‘u asboblarini chalish sirlarini o‘rgangan. 1932-yilda u Moskva Davlat konservatoriyasida avval fleyta, so‘ngra kompozitorlik sinfida tahsil olgan. 1958-yilda S. Yudakov “Maysaraning ishi” deb nomlangan birinchi o‘zbek komediya operasini yaratdi. Bu opera 1959-yilda Alisher Navoiy nomidagi Akademik opera teatrida sahnaga qo‘yildi va katta muvaffaqiyatga erishdi. 1967-yilda S. Yudakov “Nasriddinning yoshligi” nomli birinchi o‘zbek komediya baletini yaratdi.

O‘zbek professional musiqa san’atining rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Sulaymon Yudakov oliy davlat mukofotlari, orden va medallar bilan taqdirlandi. Unga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi va O‘zbekiston xalq artisti unvonlari berildi.

S. Yudakov tomonidan yaratilgan go‘zal musiqiy asarlardan biri 1949-yilda orkestr uchun yozilgan “Tantanali uvertyura”dir. “Uvertyura” so‘zi “musiqiy kirish” degan ma’noni anglatadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida S. Yudakovning “Bayram uvertyura”sini tinglang.

114 “Bayram uvertyurasi”, S. Yudakov.


1. Bu musiqa qanday kayfiyat uyg‘otadi?
2. Buning uchun qanday ifoda vositalaridan foydalanish yordam beradi?
3. Ushbu musiqada qanday musiqa cholg‘ulari ovozini eshitdingiz?
4. Qanday cholg‘ular ovozi eng yorqin eshitildi?
5. Bunday musiqa qanday holatlarda ijro etilishi mumkin?
6. Ushbu asar musiqaning uchta asosiy janri: raqs, marsh yoki qo‘shiqdan qaysi biriga mos keladi?
7. Qanday ifoda vositalari sizning tanlovingizni tasdiqlaydi? Sanab bering.



Qaldirg‘och

X. Hasanova musiqasi
Dilnur she’ri

O‘rtacha





115



Hovlimizga uchib kelding qaldirg‘och,
Quvonch olib kelding qaldirg‘och.
Ko‘z-ko‘z qilib bizlarga
Chiroyli qomatlaringni,
Ucharsan yozgancha qanotlaringni.

Naqarot:

Qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Qanotlaringni och.
Qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Bizga mehringni soch.

Qaysi tomonlardan uchib kelgansan,
Qayerda bo‘lganing aytmaysan.
Chiki-chiki kichkina, Chiki-chiki chiroylisan,
Chiki-chiki bir zum ham tinchimaysan.

Naqarot:


Qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Qanotlaringni och.
Qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Bizga mehringni soch.

Qoraqalpoq musiqa ijodi

Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyati uzoq tarixga ega bo‘lib, hozirgi kunda boy musiqiy folklor, og‘zaki an’anadagi professional musiqa shuningdek, XX asrda rivoj topgan kompozitorlik ijodiyoti namunalariga egadir.

Azaldan “Sahro bulbullari” degan ta’rifga ega qoraqalpoq musiqiy folklor shakllar asosini qo‘shiqlar tashkil etadi. Xalq marosimlari bilan bog‘liq “Yo Ramazon” (“Yaramazan”), “Beshik to‘y” (“Beshik tóy”), “Yor-yor” (“Háwjar”), “Terma-kuy” (“Terme-tolĝaw”), “Qayg‘urish” (“Sińsıw”), “Yo‘qlash” (“Joqlaw”), “Ko‘ngil so‘rash” (“Kewil aytıw”), “Qamchilash” (“Qamshıaw”), “To‘y boshlash” (“Toy baslaw”), “Kelin salom” (“Bet ashar”), “Qayg‘u she’r” (“Muń-sher”), “Badik”, “Oqsungil” (“Aqsungil”), “Qiz muloyim” (“Qiz Minayım”), “Shoyi ko‘ylak” (“Pashshayı kóylek”), “Tarlan” va bir qancha nomdagi qo‘shiqlar mavjud. Badiiy mazmuniga ko‘ra xalq qo‘shiqlari ishqiy-lirik, tarixiy, marosim, ayollar (qizlar), bolalar qo‘shiqlaridan “Beshik kuyi” (“Besik jırı”), “Tulkivoy” (“Tulkishek”), “Hakka qayda?” (“Hákke qayda?”) kabilardan iborat.

Hakka qayda?
(Hákke qayda?)



116 “Hákke qayda?” qoraqalpoq bolalar xalq qo‘shig‘i.

117 “Jaman shiganak” qoraqalpoq xalq kuyi.

Qoraqalpoq og‘zaki ijodi markazida doston musiqasi yetakchilik qiladi. Qoraqalpoq doston ijrochilari 3 turga bo‘linadi: jirovlar, baxshilar va qissaxonlar.



Janibek Piyazov – baxshi

Milliy musiqa cholg‘ulari qatoriga dostonchilarning cholg‘ulari bo‘lmish qo‘biz, dutor, g‘ijjak (girjek) va bulamon, bundan tashqari, changqo‘biz, qamish surnay, qo‘shnay, qamish nay, tuyuq, qovoq va bolalar hushtagi (“isqirawıq”) kiradi. O‘tmishda qoraqalpoqlarda chindov, surnay, ushlepek, karnay, nog‘ora, dap (doira) kabi cholg‘ularning mavjudligi haqida qahramonlik dostonlarida ma’lumotlar saqlangan. Bulardan qo‘biz va dutor keng tarqalgan. Ularda mohir sozandalar tomonidan qoraqalpoq mumtoz cholg‘u kuylari ijro etiladi.



Dutor G‘ijjak Changqo‘biz Bulamon

XX asrning II choragidan boshlab milliy kompozitorlik ijodiyoti shakllana boshladi. Musiqali dramalar, kichik simfonik asarlar, kamer asarlar yozildi. 1970 – 1990-yillarga kelib opera, oratoriya, simfoniya, sonata kabi lirik janrlardagi asarlarning ilk tajribalari paydo bo‘ldi. Kompozitor Najimaddin Muhammaddinovning “Birinchi qoraqalpoq simfoniyasi” (1971), “Ajiniyaz” birinchi milliy operasi (1974, 1987-yillarda sahnaga qo‘yilgan), birinchi milliy baleti “Ayjamal” (1996), G‘. Demesinovning 2 simfoniyasi, fortepiano va orkestr uchun konsertlariga asarlar yaratildi.

Respublikaning madaniy hayotida simfonik orkestr katta xor jamoasi va balet truppasi faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, Berdaq nomidagi filarmoniya, Qoraqalpoq davlat teleradioqo‘mitasi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestri, “Ayqulash” ashula va raqs ansambli, “Muxalles” dutorchilar ansambli va boshqa musiqiy jamoalar faoliyat yuritmoqda.

118 “Qara jorg‘a” qoraqalpoq xalq kuyi.



“Muxalles” dutorchilar ansambli

1. Qoraqalpoq xalq ijodining asosiy janrini ayting.
2. Doston deganda nimani tushunasiz?
3. Dostonni kimlar ijro etadilar?
4. Qoraqalpog‘iston professional musiqa ijodiyoti qachon shakllana boshlagan?
5. Qoraqalpoq xalq cholg‘ularining nomlarini ayting.

Vokal haqida tushuncha

Vokal – musiqa san'atining o'ziga xos turi bo'lib, birinchi navbatda, qo'shiqchilik san'atini professional darajada egallashga asoslangan. Musiqadagi vokal janri yakkaxon, ansambl yoki xor kuylash tarzida taqdim etiladi. Vokal san'ati opera, operetta, musiqali drama, komediya, estrada konserti janrlarida to'liq namoyon bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Vokalning asosi to'g'ri nafas olishdir. To'g'ri nafas olish ijrochiga musiqa ohangining sofligini saqlashga va ovozining kuchidan to'g'ri foydalangan holda, iboralarni to'g'ri shakllantirishga imkon beradi.

Sir emaski, musiqa san'atida munosib o'rin egallagan vokal hozirda juda mashhur. Vokal ijrochiligida uchta asosiy yo'nalish – an'anaviy qo'shiqchilik, akademik va estrada vokallari mavjud.

Xonandalar ijrosidagi ashula va qo'shiqlardan audio-namunalar tinglang.



Ramiz Usmanov



Dilnura Qodirjonova

119 "Dalli dunyo".
B. Lutfullayev musiqasi,
A. Oripov she'ri.

120 "Farg'onacha Shahnoz".
Muqimiy g'azali,
xalq kuyi.



Sevara Nazarxon



Ravshan Namozov

121 “Ulug‘imsan, Vatanim!”. Sevara Nazarxon musiqasi, Muhammad Yusuf she’ri.

122 “Kovushim” o‘zbek xalq qo‘shig‘i Ravshan Namozov ijrosida.

Har bir ijrochi qaysi yo‘nalishda ijro etganini aniqlang.



Estrada



An’anaviy



Folklor



Opera



Jaz



Milliy estrada